



# ADABIV MEROS

2025-YIL 1-SON / ILMIY JURNAL

Ajdar obrazining qiyosiy tahlili

Furqat va Muqimiyl ijodiy hamkorligi

“Devonu lug‘otit-turk” asarida “ishmam” atamasi

“Devoni Foniy”ning Turk-islom muzeyi nusxasi xususida

Hazrati Ali haqidagi jangnomalarning Turkiyada o‘rganilishi

Turkiy xalqlar folklorida farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlar talqini

Xalq ijodiyotida oshiq obrazining tadrijiy takomili va ma’naviy-axloqiy martabasi

Doston janrining Amerikada o‘rganilishi masalalari (Volter Feldman tadqiqotlari misolida)

Jadid taraqqiyparvari Hoji Muin tartib bergen “Yangi adabiyot” she’riy to‘plami haqida

O‘zbek marosim folklorida soch kulti bilan bog‘liq inonchlar va uning badiiy talqini

Rauf Parfi she’riyatidagi sintaktik figuralarning emotsional-ekspressiv vazifasi

Xurshid Davronning pretsedent birliklardan foydalanish mahorati

Abulg‘oziy Bahodirxon ijodi va o‘zbek tarixiy nasri taraqqiyoti

Ozarbayjon musiqiy sozlarining tadqiqi masalalari

Talqin – ilmiy-nazariy muammo sifatida

Olim, ziyoli, dono

# ADABIY MEROS

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI

**Bosh muharrir:**  
Jabbor Eshonqulov

**Bosh muharrir o'rbinbosari:**  
Shahnoza Nazarova

**Mas'ul kotib:**  
Feruza Abdurahmonova

**Muharrir:**  
Rustamova Dilnoza

**Texnik muharrir:**  
G'iyosiddin O'narov



**Manzilimiz:**  
Toshkent shahri,  
Shayxontohur tumani  
Navoiy ko'chasi, 69-uy  
e-mail: adabiymeros@gmail.com  
Tel.: (99871) 241-02-75  
Jurnal 2020-yil 26-noyabrda  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti huzuridagi Axborot  
va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan №200936238  
raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.  
ISSN 2181-2500

Jurnal 2025-yil 4-aprelda  
nashrga berildi.

"Adabiy meros" ilmiy jurnali  
O'zbekiston Respublikasi VM  
huzuridagi Oliy attestatsiya  
komissiyasining qaroriga ko'ra  
(№327/6, 30.11.2022-y.) filologiya  
fanlari bo'yicha PhD va DSc  
ilmiy darajasiga talabgorlarning  
dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy  
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

2025  
1-son (15)

**Tahrir hay'ati:**  
Ahmedova Shoira  
Asadov Maqsud  
Abdirashidov Zaynobidin  
Abdurahmonova Feruza  
Barakayev Rahmatulla  
Bekimbetov Azamat  
Boltaboyev Hamidulla  
Davlatov Olim  
Jabborov Nurboy  
Jo'raqulov Uzoq  
Jo'raboyev Otabek  
Karimov Bahodir  
Kamilova Saodat  
Mahmudov Nizomiddin  
Ochilov Nasim  
Pardayev Azamat  
Palimbetov Kamalboy  
Soriyev San'at  
Sulaymonov Mo'minjon  
Sabirova Nasiba  
Rajabova Burobiya  
Rashidova Ma'mura  
Rahmonov Nasimxon  
Turdimov Shomirza  
Tursunov Yusuf  
To'xliyev Boqijon  
Tilavov Abdumurod  
Sheraliyeva Mashhura  
Shodmonov Nafas  
Shofiyev Obidjon  
Xalilova Dilbar  
Hamdamov Ulug'bek  
Hasanova Shafoat  
Eshchanova Gavhar  
Qalandarova Dilafro'z  
Qosimov Abdug'ofur  
Qobilov Usmon  
Quronov Dilmurod  
Qobilova Zebo  
Yodgorova Mehribon  
Chulliyeva Nilufar

**Hakamlar hay'ati a'zolari:**  
Abduhalimov Bahrom (*O'zbekiston*)  
Abdullahjon Axmataliyev (*Qirg'iziston*)  
Ayse Yucel Cetin (*Turkiya*)  
Acek Fatma (*Turkiya*)  
Almas Ulvi (*Ozarbayjon*)  
Anarboy Boldiboy (*Qozog'iston*)  
Ahmet Bican Ercilasun (*Turkiya*)  
Ali Duymaz (*Turkiya*)  
Asel Isayeva (*Qirg'iziston*)  
Baydemir Husayn (*Turkiya*)  
Bakchiyev Talantaali (*Qirg'iziston*)  
Basangova Tamara (*Rossiya*)  
Demir Necete (*Turkiya*)  
Fayzulloyev Baxtiyor (*Tojikiston*)  
Fikrat Turkman (*Turkiya*)  
Gurer Gulseven (*Turkiya*)  
Vahit Turk (*Turkiya*)  
Veli Savaş Yelok (*Turkiya*)  
Ismat Çetin (*Turkiya*)  
Ibrayev Shokir (*Qozog'iston*)  
Karl Rechl (*Germaniya*)  
Metin Ekici (*Turkiya*)  
Mirzayeva Salima (*O'zbekiston*)  
Ocal Oğuz (*Turkiya*)  
Emek Uşenmez (*Turkiya*)  
Eunkyoung Oh (*Koreya*)  
Rixsiyeva Gulchehra (*O'zbekiston*)  
Sakaya Heroki (*Yaponiya*)  
Sirojiddinov Shuhrat (*O'zbekiston*)  
Sodiqov Qosimjon (*O'zbekiston*)  
Selami Fedakar (*Turkiya*)  
Temur Khocaogli (*AQSH*)  
To'laganova Sanobar (*O'zbekiston*)  
Zaytsev Ilya Vladimirovich (*Rossiya*)  
O'rayeva Darmanoy (*O'zbekiston*)

---

**“ADABIY MEROS”**  
**ILMIY JURNALI**  
**2025-YIL, № 1 (15)**  
**USHBU SONDA:**

---

**MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK**

**Salimaxon Rustamiy.** “Devonu lug‘otit-turk” asarida “ishmam” atamasi.....4

**NAVOIY ABADIYATI**

**Mabruk Djurayev.** “Devoni Fonyi”ning Turk-islom muzeyi nusxasi xususida.....8

**JADID ADABIYOTI**

**Xilola Giyosova.** Jadid taraqqiyatparvari Hoji Muin tartib bergan “Yangi adabiyot” she’riy to‘plami haqida.....15

**OLTIN BESHIK**

**Hasan Bekiroğlu.** Turkiy xalqlar folklorida farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq marosimlar talqini...22

**Ilhama Gasabova.** Ozarbayjon musiqiy sozlarining tadqiqi masalalari.....32

**Dilafro‘z Qalandarova.** Doston janrining Amerikada o‘rganilishi masalalari (Volter Feldman tadqiqotlari misolida).....40

**Elnura Qurbanova.** Xalq ijodiyotida oshiq obrazining tadrijiy takomili va ma’naviy-axloqiy martabasi.....45

**Feruza Abduraxmonova.** O‘zbek marosim folklorida soch kulti bilan bog‘liq inonchlar va uning badiiy talqini.....51

**Hamza Allambergenov.** Ajdar obrazining qiyosiy tahlili.....59

**TANQID VA TAHLIL**

**Qo‘ldosh Pardayev.** Furqat va Muqimiyl ijodiy hamkorligi.....68

**Farruh Bafoyev.** Hazrati Ali haqidagi jangnomalarning Turkiyada o‘rganilishi. ....74

**Ayimhan Eshniyazova.** Talqin – ilmiy-nazariy muammo sifatida.....80

**TILSHUNOSLIK**

**Sehriyo Madaminova.** Rauf Parfi she’riyatidagi sintaktik figuralarning emotsional-ekspressiv vazifikasi.....87

**Xurshida Sultanova.** Xurshid Davronning pretsedent birliklardan foydalanish mahorati....94

**FANIMIZ FIDOYILARI**

**Vahit Türk.** Olim, ziyoli, dono.....102

**ADABIY MANBALAR XAZINASIDAN**

**Qodirjon Ergashev.** Abulg‘oziy Bahodirxon ijodi va o‘zbek tarixiy nasri taraqqiyoti.....108


---

4. Xalq ertaklarida ajdarho qahramonning botirligi, yengilmasligini ifoda etish uchun sinov vazifasini ham bajaradi. Ertak qahramoni uni mag‘lub etish orqali o‘zining jasoratini va kuchqudratini namoyon etishi lozim. Ba’zan ertak qahramoni uni yengganiga nishona sifatida ajdar terisidan tasma olib, beliga bog‘lab qo‘yadi (“Uch og‘ayni botirlar”, “Rustamzod va Sherzod”).

5. Ajdarho obrazi o‘zida sehrli xazinaning qo‘riqchisi timsolini aks ettiradi. Ertak qahramoni xazinani qo‘lga kiritish uchun uni mag‘lub etishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumanov E. *Ertaklardagi dev, pari, ilon, yalmog‘iz obrazlarining mifologik asosi* // “Jahon adabiyoti” jurnali, 2022-yil 1-son.
2. O‘zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
3. O‘zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. Ikkinci jild. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
4. Бартольд. В. В. Сочинения. Том IV. – Москва, 1967.
5. Ертегілер // Қазақ халық әдебиеті. Көп томдық. Төртінші том. – Алматы: Жазушы, 1989.
6. Жаббор Эшонкул. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999.
7. Жирмунский В.М., Зарипов Х.Т. Узбекский героический эпос. – Л: Наука, 1974.
8. Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртак. – Тошкент: Мимтоz so‘z, 2014.
9. Миры народов Мира. Энциклопедия в двух томах. 2-том. – Москва, 1992.
10. Насимхон Раҳмон. Турк хоқонлиги. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ месроси нашириёти, 1993.
11. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва: Наука, 1969.
12. Стеблева И.В. Очерки турецкой мифологии. – Москва: Восточная литература, 2002.
13. Фрэзер Дж. Фольклор в Ветхом Завете. – М.: ИПЛ, 1986. Пропп В.Я. Исторические корни волшебный сказки. – Л., 1986.
14. Қарақалпақ халық ертегелери // Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 1-том. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1977.
15. Қиял-гажайып ертегілер // Бабалар сөзі. Жүз томдық. 74-том. – Астана: Фолиант, 2011.
16. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашириёти, 2008.
17. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ajdaho\\_obrazi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ajdaho_obrazi)



**QO‘LDOSH PARDAYEV,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori*

## FURQAT VA MUQIMIY IJODIY HAMKORLIGI

**Annotatsiya:** Milliy uyg‘onish davri Qo‘qon adabiy muhitining yetuk namoyandalari Zokirjon Furqat va Muhammad Aminxo‘ja Muqimiyning do’stona munosabati va ijodiy hamkorligi masalasi talqin qilingan. Jumladan, ikki ijodkor she’riy maktublari tahlili, bir-birining ijodidan ta’sirlanib yozilgan nazira va taxmislari talqini, Muqimiyl qo‘lxat bayozida Furqat ijodiga keng o‘rin ajratganligi va bayozda she’rlarining ketma-ket kelib, bir-biriga nazira qilingani xususida muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so‘zlar:** Adabiy muhit, maktub, davradoshlar, Qo‘qon, adabiy hamkorlik, nazira, davr, she’r.

**Annotation:** The issue of friendship and creative cooperation of Zakirjon Furqat and Muhammad Aminkhoja Muqimi, mature representatives of Kokan literary environment of the period of national renaissance, is interpreted. In particular, the analysis of the poetic letters of the two artists, the interpretation of the poems and interpretations written under the influence of each other’s works, the important scientific and theoretical conclusions were made about the fact that Furqat’s work was given a large place in Muqimi’s Kolkhat Bayoz, and that the Bayozd’s poems came consecutively and compared to each other.

**Key words:** Literary environment, letter, friends, Kokan, literary cooperation, gaze, era, poem.

Milliy adabiyotimiz tarixida Qo‘qon adabiy muhitidan yetishib chiqqan ijodkorlar adabiy merosi alohida o‘rin tutadi. Qo‘qonda Muqimiyl, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Nisbatiy, Muxayyir kabi davrning yetuk ijodkorlari adabiy davra tashkil etdi. Keyinchalik, Hamza, Mirzo Ho‘qandiy, So‘fizodalar qatnashdilar. Shuningdek, bu davraga Zoriy, Yoriy, Qoriy, Pisandiy, G‘urbat, Rojiy, Muntazir, Shavqiy, Nodim kabilar uyushdilar. Qo‘qonning mashhur shoirlaridan biri, “toji shoir” deb e’zozlangan Muhyi bo‘lsa, ikkinchisi, shubhasiz, Haziniy to‘ra deb ardoqlangan Ziyovuddin Haziniy edi. Xo‘janddan Toshxo‘ja Asiriy, Sayramdan Yusuf Saryomiy, Toshkentdan Karimbek Kamiy kabilar Qo‘qondagi adabiy suhbatlarda tez-tez ishtirok etib turdilar [Qosimov, va boshqalar. 2004: 31]. Bunday shoirlar ishtirokida o‘tkazilib turilgan adabiy yig‘inlar haqida Furqat “Ahvolot” asarida quyidagicha yozadi: “*Chun yoshim soati umr shabro ‘zida yigirma to‘rt shumorig‘a yetti, ul vaqt Ho‘qand viloyatidagi fozilu va rasota‘b kishi- lar birla ittihod aylab alarning suhbatidin ko‘b bahralar topdim va asr shuarolarikim, chunonchi mavlono Muhyi va mavlono Muqimiyl va mavlono Zavqiy va mavlono Nisbatdurlar, hamisha majlis bunyod aylab zodai ta‘blarimizdin mushoira qilur erdik va bir g‘azalda tatabbu’ ko‘rguzub, bir mazmun har nav’ ifoda topar erdi. Goho hamd gulshanidin gul uzub, gohi na’t naxlistonidin samarchin bo‘lur erduk. Va ba‘zi vaqt ishq tavsifi va husn ta‘rifida g‘azal mashq aylab va gohi qadimiy shuarolar devonlaridin bir sho‘x g‘azalni tofib, anga har qaysimiz alohida muxammas bog‘lar erduk...*” [Furqat, 1891: 16].

---

Bunday adabiy hamkorlik natijasida yaratilgan she'riy asarlarni mazkur zamondosh shoirlar ijodiy merosida ko'plab uchratish mumkin. Chunonchi, Muqimiy, Nusrat, Furqat, Muhyi, Nisbat, Zavqiy birgalikda G'oziy g'azaliga bog'langan bir muxammas oxiridagi bir band fikrimizga misol bo'la oladi:

*Umid ila Muqimiy kuyida ko 'p nola qildurdi,  
Topib Nusrat o 'zini tig 'i Furqat birla tildurdi,  
O'shal Muhyi qushiga Nisbatiy Zavqiyi ildurdi,  
Nihon dardingni ko 'z yosh tukub olamg 'a bildurdi,  
Giriftor o lmasun G 'oziy kabi g 'ammoz yo 'ldosha.* [Zavqiy, 2003: 4].

Qo'qon adabiy muhitida mushoara, asosan, Amir Umarxon adabiy davrasida shakllandi, rivojlandi va yaxshi samaralar bergani ma'lum. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida bu ijodiy an'anani Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Nisbatiy kabi shoirlar davom ettirdi. Bu haqda mazkur adabiy muhit tadqiqotchilaridan A.Qayumov, Sh.Yusupov, N.Jabborov, U.Otajon, O.Jo'rboevlarning muhim ilmiy kuzatishlari bor. [Qayumov, Yusupov S, Jabborov , Otajonov , Jo'rboev O, 1961, 1995, 1994, 2009, 2007: 23,87,67,56,78 ].

Muqimiy va Furqatning do'stona munosabati va ijodiy hamkorligini o'rganish milliy adabiyotimiz tarixinining qorong'u jihatlarini oydinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 7521-raqamli dastxat bayozida:

*Va 'da yolg 'onlar tilismi intizor eti meni,  
Bosh ayog 'guyo dili ummidvor etdi meni, –*

deb boshlanuvchi g'azalning to'liq matni keltirilgan. Bu g'azalning Furqat va Muqimiy hamkorligida yozilganligi xususida adabiyotshunoslar G'.Karimov, Xolid Rasul, N.Jabborovlarning ilmiy kuzatuvlari diqqatga sazovordir [Karimov, Rasulov, Jabborov, 1960, 1990, 1994: 348, 45, 44]. Jumladan, professor N.Jaborov: "...Umuman, ikki, ba'zan uch shoirning hamkorlikda g'azal bitish hodisasi Qo'qon adabiy muhitigagina xos bo'lgan xususiyatdir" [Jabborov, 1994: 4]. – deya asosli fikrlarni bildiradi.

Muqimiyning 7521 raqamli qo'lyozma dastxat bayozi Muqimiy va Furqat ijodiy hamkorligini ko'rsatuvchi muhim manba ekanligini alohida ta'kidlash kerak. Bayoz 1892-yildan so'ng ko'chira boshlanib, bu ish bir necha yil – to umrining oxirigacha davom etgan. Muqimiy o'zining turli qo'lyozmalarda tarqoq holda bo'lgan asarlarini jamlab, yaxlit bir majmua holiga keltirishni maqsad qilgan bo'lsa-da, biroq bevaqt o'lim bu ishni oxiriga yetkazishga imkon bermagan. Zero, shoirning yana ko'plab she'rlarining unga kirmay qolishi, qolaversa, bayozning oxirida anchagina bo'sh varaqlar qolib ketgani bundan dalolat beradi. To'plamdan joy olgan g'azallar orasida Muqimiyning zamondoshlari Furqat, Zavqiy va Muhayyirlarning g'azallaridan ham namunalar olingan bo'lib, ular o'z mazmuni, vazni, qofiyasi, radifi bilan Muqimiyning ayrim g'azallari bilan deyarli bir xil keladi. Bu asarlarni bir-biriga nazira tarzida yozilgan, deb qarash mumkin. Bino-barin, bunday nazira – o'xshatma she'rlar bayozda bir joyda yonma-yon beriladiki, ular o'rtasidagi yaqin adabiy hamkorlik, ijodiy musobaqa va bir mavzuda qalam tebratishdagi har bir nazm sohibining o'ziga xos mahorat sirlarini bir joyning o'zida muqoyasa qilib kuzatishda qulaylik tug'diradi. Ayniqsa, bayozda Muqimiyning Furqat ijodiga alohida o'rin ajratgani, Muqimiy bayozni o'z she'rlari bilan emas, balki Furqatning she'ri bilan boshlaydi. Demak, bayoz Furqat asari bilan ochiladi. Bu esa Muqimiyning Furqatga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtiromidan yorqin bir dalildir.

---

Muqimiyning Furqat g‘azallariga bog‘lagan 8 muxammasi Muqimiy asarlar nashiridan ma’lum.

Muqimiy va Furqatning ijodiy hamkorligi, do‘stona munosabatlari masalasi har doim ham mutaxassislar diqqat markazida turgan. Jumladan, adabiyotshunos Aziz Qayumov “Fan va turmush” jurnali 1958 yil 10-sonidagi “Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat” sarlavhali maqolasida bunday yozadi: “...Keyinchalik Furqat o‘z Vatanini qoldirib, uzoq ellarga muhojirat qilib ketishga majbur bo‘lganida uning Muqimiy bilan tez-tez she’riy xatlar yozishib turganini Obidjon A’lam hikoya qilib bergen edi. O‘sha paytlarda Muqimiy o‘z do‘stini sog‘inib ko‘pgina alamli she’rlar yaratgan, Furqatga yozgan bir maktubida “Dunyoni Muqimiyga g‘amxona qilib ketting”, deb o‘zining Furqatga nisbatan samimiyl do‘stona muhabbatini, usiz shoirga turmushning qanchalik og‘ir ekanini izhor etgan edi”, – deb bu ikki ijodkor haqida qimmatli fikrlarni bildiradi olim. Furqat toshkentdan turib davradoshlariga quyidagicha salom yo‘llaydi:

*Salom, ey menga yoru oshnolar,  
Qadrdonlar, zamiri purziyolar.  
Muqimiy, Hoji Muhiddin, Zavqiy,  
Muhayyir – barcha zakkiyu rasolar.*

Furqat Muqimiy, Zavqiy, Muhayyir kabi “zamiri purziyolar”, “zakkiyu rasolar”ga yo‘llayotgan bu maktubida o‘zining Toshkentdagagi faoliyati, gazeta ishlari bilan shug‘ullanib turgani haqida yozadi. Maktubning oxirida esa Muqimiydan o‘z ahvoli xususida yozib turishini, mavridi kelganda do‘stiga yurakdan aytadigan anchagina gaplari borligini alohida ta’kidlaydi:

*Yozing ahvolingizdan bir raqima,  
Budur sizdan umidu iltijolar.  
So ‘z o ‘ldi muxtasar, ziq erdi fursat,  
Ko ‘p erdi yo ‘qsa, Furqat, muddaolar.*

Muqimiy ham bu she’riy maktublarga befarq bo‘lgan emas. Uning Qo‘qondan turib Furqatga yozgan javob maktubi quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

*Salom, ey oshnoyi jonajonlar,  
Aqidapesha, mushfiq mehribonlar.  
Ayozi vaqtu Aflatuni davron,  
Fariduddahr, Arastuyi zamonalr.  
Kamandi fitrat ila saydi ma ‘ni,  
Qilurg‘a chastu chobuk nuktadonlar.  
O‘qib maktubingiz mahzun ko ‘ngulga,  
Farahlik yetti, bo ‘ldim shodmonlar.*

Ushbu satrlarda Muqimiy Furqatning Toshkentda turib dunyoviy ilm-fan yutuqlari bilan tanishganligidan, ahli-donishlar bilan hamkorlikda bo‘lganidan cheksiz quvonganligini ko‘ramiz. Muqimiy maktubining davomida davr ziddiyatlaridan shikoyat qiladi:

*Darig ‘o siflalar Xo ‘qandda doyim,  
Musulmonsiz- g ‘izo har lahza qonlar.  
Falak tiyri jafo har kimga otsa,  
Meni aylar, “O‘shal, shul!” deb nishonlar.*

---

Bu misralar razolat va jaholat, zulm va haqsizlik hukm surgan jamiyatda inson huquqining, iste'dod egalarining nechog'lik tahqirlanganligiga dalildir.

Bu davradosh shoirlar qaerda bo'lmasin bir lahza ham do'stlarini unutmadi. Furqat xorij-daligida "Vatanidan kelgan har bir xat-xabarni ko'ziga to'tiyo qiladi. Zavqiyning 1898 yili yozgan satrlaridagi ehtirosli sog'inchdan hayajonga tushadi:

*Jonimga tob soldi so 'zi firoq, Furqat,  
Kelkim, xarob qildi bu ishtivoq, Furqat,  
Qosid, yetur payomim, har yerda topsang oni,  
Zavqiyni toqatini ko 'p qilma toq, Furqat.*

Shoir Furqat darhol:

*Kezdim jahonni qolmay, Shomu Iroq, Zavqiy!  
Bir topmadim seningdek ahli vifoq, Zavqiy,  
Shavqi visoling ila hargiz qaror yo 'qtur!  
Jonimni yoqti hajru ko 'nglum – firoq, Zavqiy!*

– degan satrlar bilan boshlanuvchi she'riy javob bitib yuboradi. "Iqboli noraso"ligidan, "ma'yus tole'i"dan qadrdoniga shikoyat qiladi. [Qosimov, va boshqalar. 2004: 128].

Umuman, davradosh shoirlar, xususan, Muqimiyy va Furqat ijodida bunday mehr bilan yozilgan she'riy maktublar ularning bir-biriga nechog'lik qadrdon ekanligini ko'rsatadi.

"Furqatning Xo'janda yashagan davrida yozilgan "Nest" radifli g'azali o'z zamonida va undan keyin ham shoirga sharaf keltirdi. Bu g'azalga zamonasining mashhur shoirlari Tajalliy, Muqimiyy, Muhyi, Mahmud Hakim Yayfoniylar javob yozganlar. [Jabborov, 2001: 31]" Natijada "Nest" radifli g'azallar turkumi yuzaga keldi. Bu haqda G'afur G'ulom, G'.Karimov, A.Abdug'afurov, N.Jabborov, A.Turdialiylar taddiqotlarida bu g'azal va unga yozilgan javoblar tahlil etilgan. Professor N.Jabborov ta'kidlashicha, mazkur g'azalda Shamsiddin Tabriziy, Xusrav Dehlaviy kabi Sharq mumtoz adabiyoti darg'alaridan iqtiboslar keltirilgan.

Furqatning g'azali quyidagicha boshlanadi:

*Ko 'hkanro tesha chun az obi ibrat tez nest,  
Shahdi Shirin juz bakomi Xisravi Parvez nest.*

Mazmuni: Farhodning teshasi ibrat suvi bilan sug'orilmagan, shuning uchun Shirin shaxdi Xisrav Parvezgagina nasib bo'ldi. Mahmud Hakim Yayfoni g'azalining birinchi bayti esa qu-yidagicha:

*Ko 'hkanga tesha chun hayrat suyidin tez emas,  
Shahdi Shirin g'ayri komi Xisravi Parvez emas.*

Yuqoridagi ikki baytni muqoyosa qilsak, Mahmud Hakim Yayfoni g'azalining matla'i Furqat g'azali matla'ining aynan tarjimasi ekanligini ko'ramiz. [Turdialiiev, 1990: 151].

Muqimiyning aynan shu baytga qilgan nazirasi:  
*Mekanam ko 'hi g'am az shavqi hamon Shirin labe,  
Teshayi Farhod peshi noxuni man tez nest.*

Mazmuni: O'sha shirin lab shavqida man g'am tog'ini qaziymen, Farhod teshasi maning tirnog'imdin o'tkir emas. [Karimov, 1974: 206].

Bu bayt Furqat va Mahmud Hakim Yayfoni y g'azallarining matl'ai bo'lib kelsa, Muqimiy g'azalining uchinchi baytiga tegishli. Ko'rindiki, Muqimiy baytida Furqat baytidagi poetik ta'svir va obrazlar saqlansada, lekin Muqimiy misralarida mazmun boshqacharoq.

Umuman olganda, Furqatning Xo'janddan turib davradoshlariga javob yozish uchun yuborgan "Nest" radifli g'azali tahlili ham davradoshlar o'rtasidagi ta'sirlanish va ijodiy hamkorligini o'rganishda ilmiy qimmatga molikdir.

"Bo'ldi" "o'l mish" radifli ijtimoiy mavzudagi she'rlar ham davr shoirlari ijodida ko'plab uchraydi. Ularda zamon notinchligi, odamlarda imyon e'tiqodning yo'qolishi, xalning axloqsizligi, ayniqsa, mamlakatda qoroqchi, o'g'rilar ko'payishi natijasida odamlarning tinchligi buzilishi kabi ko'plab masalalar tasvirlanadi. Jumladan, Muqimiy "Dar mazammati zamona" sarlavhali she'rida bunday yozadi:

*Darig 'okim, ajoyib turfa bir oxir zamon bo 'ldi,  
Iki qo 'l to yoqoda yurmasang, ishlar yomon bo 'ldi...  
Yig 'ildi har tarafdin zo 'r zani, xunrez o 'g 'rilar,  
Alardin nechasi badbaxlarni pirsyon bo 'ldi. [Karimov, 1974: 359].*

Professor H.Boltaboev ham bu she'r xususida fikr yuritib, Muqimiy mustamlakachi zolimlar ning zo'rligini ko'rsatganini, shuningdek, olim she'r matnidagi ba'zi bir matniy tafavutlar ustida to'xtaladi. [Boltaboyev, 1998: 6].

Bunday zamonaning nosozligi haqidagi Furqat she'rlari ham har jihatdan Muqimiy she'rlari bilan mutonasib. Furqat ham davr ziddiyatlari, xalqning tobora shariatdan uzoqlasha borishi, oqibatda axloqsiz kimsalarning haddan ziyod ko'payishi borasida quyidagicha bayon etadi:

*Yaqo ushlang, ayo do 'stlar, zamon turfa zamon bo 'ldi,  
Musulmon xalqimizni fe 'lu huyi ko 'p yomon bo 'ldi,  
Adoshib to 'g 'ri yo 'ldin, ma 'siyat sori ravon bo 'ldi,  
Viloyat ichra nomashru 'ish barcha ayon bo 'ldi,  
Sharorat ahliga Farg 'onamiz dorulamon bo 'ldi. [Qayumov, 1986: 142].*

Bunday zamon notinchligi, birgina bular ijodida emas, boshqa davr shoirlari ijodida ham ko'plab uchraydi. Zavqiy, Haziniy, Muhyi, Zoriy, Muhayyir va Nodim kabi ko'plab shoirlar shular jumlasidandir.

Umuman olganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhitining yetuk namoyandalari Zokirjon Furqat va Muhammad Aminxo'ja Muqimiying do'stona munosabati va adabiy hamkorligi, ularning adabiy davrasи, she'riy maktublari davr ijtimoiy hayotini o'rganish, davrning qorong'u jihatlarini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi bilan dolzarblik kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қосимов Б., ва бошқалар. Миллий уйғониши даври ўзбек адабиёти дарслиги. – Т.: Маънавият, 2004. -Б. 31.
2. Фурқат. Аҳволот. //Туркистон вилоятининг газети, 1891. – Б.16.
3. Завқий. “Ажаб замона. (Наирга тайёрловчилар А.Мадаминов, А.Турдиалиев) – Т.: Шарқ, 2003. – Б. 4.

- 
4. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити (XVIII –XIX асрлар). – Т.: Фан, 1961; Қаюмов А. Асарлар. 7-том, Т.:Мумтоз сўз, 2011; Юсупов Ш. Ҳудоёрхон ва Фурқат. – Т.: Шарқ, 1995; Жабборов Н. Фурқат асарларининг қўллёзма манбалари. Ф.ф.н. – Т.: 1994; Отажон У. Мушиоара ёхуд шеър баҳси. Т.: Мериюс, 2009; Жўрабоев О. Ҳазиний тўра. – Т.: Фан, 2007.
5. Каримов F. Изоҳлар /Муқимий. Асарлар тўплами. Икки томлик, I том. – Т.: Ўздавабадииниашр, 1960. Б. 348; Расул X. Фурқат. Асарлар маъжмуаси. Икки жилдлик (араб имлосида). I жилд. – Т.: 1990; Жабборов Н. Фурқат асарларининг қўллёзма манбалари. Ф.ф.н. дис-я. – Т.: 1994. – Б. 43-44.
6. Жабборов Н. Фурқат асарларининг қўллёзма манбалари. Ф.ф.н. дис-я. – Т.: 1994. – Б. 43-44.
7. Қосимов Б., ва бошқалар. Миллий уйғонии даври ўзбек адабиёти дарслиги. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 128.
8. Жабборов Н. Фурқатнинг Хўжсанд сафарига оид янги маълумотлар. //ЎзМУ хабарлари, 2001.№3. – Б.31.
9. Турдиалиев А. Фурқатнинг бир тоғсикча газали ва унга жавоблар. – Фурқат ижодиёти. – Т.: Фан, 1990. – Б.151.
10. Каримов F. Муқимий. Асарлар тўплами. – Т.: Fafu Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1974. – Б.206.
11. Karimov G'. Muқимий. Асарлар. – T., 1974.-Б.359.
12. Болтабоев X. Ёлланган адабиёт сирлари //ЎзАС.1998, 4 декабрь.
13. Қаюмов А. Шоир Фурқат. Эссе // Шарқ юлдузи. 1986. № 4-5. – Б.142.

